

UO‘K(UDC, УДК): 81-26

**MILLIY-MADANIY KONSEPSIYA TUSHUNCHASI:
LINGVOMADANIY, SEMANTIK VA SEMIOTIK YONDASHUVLAR³⁰**

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamaxmudovich

*Filologiya fanlari nomzodi, dotsent
Namangan davlat chet tillari instituti*

Namangan, O‘zbekiston

ORCID ID:0009-0003-8261-2878

E-mail: bahtiyorxolmirzayev1@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada “milliy-madaniy konsepsiya” tushunchasi til, tafakkur va madaniyatning integrativ mahsuli sifatida talqin qilinib, uning lingvomadaniy, semantik va semiotik yondashuvlar doirasidagi nazariy asoslari tizimli yoritiladi. Tadqiqotning maqsadi milliy ong, tarixiy tajriba va qadriyatlar tizimining til vositasida konseptual modellashtirilish mexanizmlarini ochish hamda milliy-madaniy konsepsiyaning yadro-periferiya tuzilishini aniqlashdan iborat.. Maqolada muammo milliy-madaniy konseptlarning ko‘p qatlamli tabiatini faqat formal-semantik moslik bilan izohlashning yetarli emasligi, ayniqsa tarjimada ekvivalentlik va adekvatlikni ta’minlashda konseptual hamda aksiologik komponentlar yo‘qolishi xavfi mavjudligi sifatida qo‘yiladi. Metodologik asos sifatida integrativ yondashuv tanlanib, konseptni denotativ yadro va periferik qatlamlarga ajratish, lingvomadaniy tahlilning uch bosqichi hamda semantik differensiallashtirish qo‘llanadi. Muhokama qismida milliy-madaniy konsepsiyaning til tizimining turli sathlarida namoyon bo‘lishi ko‘rsatilib, “dasturxon”, “mehmon”, “or-nomus” kabi birliklar misolida denotativ ma’no bilan aksiologik-ramziy qatlamning farqi asoslanadi. Natijada milliy-madaniy konseptlarni tahlil qilish va tarjima qilishda konseptual yadro va periferiyani ajratish, baholovchi komponentni pragmatik ekvivalentlik orqali tiklash, izohli tarjima, kompensatsiya va pragmatik moslashtirish strategiyalarini qo‘llash zarurligi xulosalanadi.

KALIT SO‘ZLAR

Milliy-madaniy konsepsiya, kognitivlingvistika, semantik yondashuv, madaniyat, til va madaniyat o‘zaro ta’siri, tarixiy-madaniy qatlam, shaxsiy-emotsional qatlam, tarjimashunoslik, adekvatlik, semantic muqobillik, intersemiotikmoslik.

Received: February 27, 2026

Accepted: March 04, 2026

Available online: May 10, 2026

³⁰ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Xolmirzayev B. Milliy - madaniy konsepsiya tushunchasi: lingvomadaniy, semantik va semiotik yondashuvlar. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 2(10) — B. 245-256.

NATIONAL-CULTURAL CONCEPT: LINGUISTIC-CULTURAL, SEMANTIC AND SEMIOTIC APPROACHES

Xolmirzayev Baxtiyor Mirzamaxmudovich

PhD in Philology, Associate Professor

Namangan State Institute of Foreign Languages

Namangan, Uzbekistan

ORCID ID:0009-0003-8261-2878

E-mail: bahtiyorxolmirzayev1@gmail.com

ABSTRACT

This article interprets the concept of the “national-cultural concept” as an integrative product of language, thought, and culture, and systematically elaborates its theoretical foundations within the frameworks of linguocultural, semantic, and semiotic approaches. The aim of the study is to identify the mechanisms of conceptual modeling of national consciousness, historical experience, and value systems through language, as well as to determine the “core–periphery” structure of the national-cultural concept.

The problem addressed in the article lies in the insufficiency of explaining the multilayered nature of national-cultural concepts solely through formal-semantic correspondence, particularly given the risk of losing conceptual and axiological components when ensuring equivalence and adequacy in translation. As a methodological foundation, an integrative approach is adopted, involving the distinction between the denotative core and peripheral layers of the concept, the application of a three-stage linguocultural analysis and semantic differentiation.

The discussion section demonstrates the functioning of the national-cultural concept at various levels of the language system. Using the examples of the units “dasturxon,” “mehmon,” and “or-nomus,” the distinction between denotative meaning and the axiological-symbolic layer is substantiated. As a result, the necessity of distinguishing between the conceptual core and periphery in the analysis and translation of national-cultural concepts is established, along with the restoration of the evaluative component through pragmatic equivalence and the use of descriptive translation, compensation, and pragmatic adaptation strategies.

KEY WORDS

National-cultural concept, cognitive linguistics, semantic approach, culture, interaction between language and culture, historical-cultural layer, personal-emotional layer, translation studies, adequacy, semantic equivalence, intersemiotic compatibility.

НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНАЯ КОНЦЕПЦИЯ: ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ, СЕМАНТИЧЕСКИЙ И СЕМИОТИЧЕСКИЙ ПОДХОДЫ

Холмирзаев Бахтиёр Мирзамахмудович

кандидат филологических наук, доцент,

Наманганский государственный

институт иностранных языков

Наманган, Узбекистан

ORCID ID:0009-0003-8261-2878

E-mail: bahtiyorxolmirzayev1@gmail.com

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье интерпретируется понятие «национально-культурная концепция», представляющее собой интегративный продукт языка, мышления и культуры, системно раскрываются её теоретические основания в рамках лингвокультурологического, семантического и семиотического подходов. Цель исследования состоит в выявлении механизмов концептуального моделирования национального сознания, исторического опыта и системы ценностей посредством языка, а также в определении «ядро» и «периферии» в структуре национально-культурной концепции. Рассматриваемая в статье проблема порождается недостаточностью объяснения многослойной природы национально-культурных концептов исключительно через формально-семантическое соответствие, особенно с учётом риска утраты концептуальных и аксиологических компонентов при обеспечении эквивалентности и адекватности в переводе. В качестве методологической основы избран интегративный подход, предусматривающий разграничение концепта на денотативное ядро и периферийные слои, применение трёхэтапного лингвокультурологического анализа, а также семантическую дифференциацию. В разделе обсуждения показано функционирование национально-культурной концепции на различных уровнях языковой системы, на примере единиц «dasturxon», «mehmon», «og-pomus» обосновывается различие между денотативным значением и аксиологически-символическим слоем. В результате делается вывод о необходимости разграничения концептуального ядра и периферии при анализе и переводе национально-культурных концептов, восстановления оценочного компонента посредством прагматической эквивалентности, а также использования описательного перевода, компенсации и прагматической адаптации.

Национально-культурная концепция, когнитивная лингвистика, семантический подход, культура, взаимодействие языка и культуры, историко-культурный слой, личностно-эмоциональный слой, переводоведение, адекватность, семантическая эквивалентность, интерсемиотическое соответствие.

KIRISH

Zamonaviy gumanitar fanlar rivojlanishida til, tafakkur va madaniyat oʻrtasidagi oʻzaro munosabatni kompleks yondashuv asosida oʻrganish tendensiyasi kuchayib bormoqda. Ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmida yuz bergan “kognitiv burilish” natijasida til inson ongining passiv ifoda vositasi emas, balki konseptual modellashtirish mexanizmi sifatida talqin qilina boshlandi. Konseptual metafora nazariyasini ishlab chiqqan G. Lakoff va M. Johnson inson tafakkurining metaforik xarakterini asoslab, abstrakt tushunchalar konkret tajriba asosida shakllanishini koʻrsatdilar. Bu qarashlar milliy-madaniy konsepsiya tushunchasini chuqurroq anglash uchun metodologik poydevor yaratdi, chunki har bir xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va qadriyatlari til tizimida konseptual modellar koʻrinishida mujassamlashadi.

Mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi. Birinchidan, globallashtirish va madaniyatlararo muloqot sharoitida milliy-madaniy konsepsiyalarni toʻgʻri talqin qilish va adekvat tarjima qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Muayyan etnomadaniy tajribaga tayanadigan konseptlar koʻpincha boshqa til va madaniyatda toʻliq muqobilga ega boʻlmaydi, bu esa semantik va aksiologik yoʻqotishlarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, zamonaviy lingvistika, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik fanlari kesishgan nuqtada milliy-madaniy konsepsiya kompleks nazariy muammo sifatida shakllangan boʻlib, uni bir yoqlama - faqat semantik yoki faqat lingvistik - yondashuv asosida izohlash yetarli emas. Uchinchidan, milliy ong va madaniy xotiraning til vositasida modellashtirilishi masalasi etnolingvistik va semiotik tadqiqotlar uchun ham muhim nazariy asos boʻlib xizmat qiladi.

Tadqiqotning yangiligi shundaki, unda milliy-madaniy konsepsiya lingvistik birlik yoki oddiy semantik kategoriya sifatida emas, balki lingvomadaniy, semantik va semiotik yondashuvlar integratsiyasi asosida koʻrib chiqiladi. Konseptning denotativ yadrosi va periferik - aksiologik, obrazli, emotsional - qatlamlari oʻzaro dialektik birlikda tahlil qilinadi. Shuningdek, milliy-madaniy konsepsiyaning til tizimining turli sathlarida - leksik, frazeologik, paremiologik va diskursiv darajalarda - namoyon boʻlish mexanizmlari kompleks metodologik asosda yoritiladi. Bu esa konseptni koʻp qatlamli mental-madaniy model sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi milliy-madaniy konsepsiya tushunchasining nazariy asoslarini aniqlash, uning lingvomadaniy, semantik va semiotik xususiyatlarini tizimli ravishda tahlil qilish hamda konseptual yadro va periferiyaning oʻzaro munosabatini ochib berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: birinchidan, “konsept” va “milliy-madaniy konsepsiya”

atamalarining ilmiy talqinlarini qiyosiy tahlil qilish; ikkinchidan, konseptning tarkibiy modeli, xususan denotativ yadro va aksiologik qatlamni aniqlash; uchinchidan, lingvomadaniy yondashuv doirasida milliy mentalitet va qadriyatlar tizimining til birliklarida ifodalanish mexanizmlarini ko'rsatish; to'rtinchidan, semantik va semiotik tahlil asosida konseptning ramziy va baholovchi komponentlarini ochib berish; beshinchidan, milliy-madaniy konsepsiyalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni nazariy jihatdan asoslash.

Shunday qilib, mazkur tadqiqot milliy-madaniy konsepsiyani til, tafakkur va madaniyatning integrativ mahsuli sifatida talqin etib, uni ko'p darajali va ko'p qatlamli fenomen sifatida o'rganishga qaratilgan. Bu yondashuv nafaqat nazariy lingvistika, balki madaniyatlararo kommunikatsiya va tarjimashunoslik uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

METODLAR

Mazkur maqolada nazariy-tahliliy (konseptual), semantik-struktur tahlil, lingvomadaniy tahlil, semiotik tahlil, qiyosiy-pragmatik (tarjimaviy) tahlil, diskursiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

ASOSIY QISM

Milliy-madaniy konsepsiya masalasi zamonaviy tilshunoslik, madaniyatshunoslik va tarjimashunoslik fanlarining integrativ kesishuv nuqtasida shakllangan kompleks nazariy muammo sifatida talqin etiladi. Kognitiv lingvistika doirasida konsept tushunchasi milliy ongning asosiy tarkibiy birligi sifatida talqin etila boshladi. Yu. S. Stepanov konseptni "madaniyatning asosiy hujayrasi" deb ataydi va uning uch qatlamli tuzilishini ko'rsatadi, bular: aktual semantik, tarixiy-madaniy va individual interpretativ qatlamlar (Stepanov Yu., 1997, 40-45). Bu model milliy-madaniy konsepsiyaning diaxron va sinxron xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

V. A. Maslova konseptni lingvomadaniy birlik sifatida izohlab, uni milliy mentalitetni aks ettiruvchi semantik konstrukt deb baholaydi. Tadqiqotchining fikricha, konsept nafaqat semantik birlik, balki aksiologik (qadriyatlarga oid) mazmunni ham o'zida mujassam etadi (Maslova V., 2001, 36-41). Demak, milliy-madaniy konsepsiya muayyan xalqning qadriyatlar tizimi, mental stereotiplari va kollektiv tajribasini til vositasida qayta yaratadi.

Tarjimashunoslikda milliy-madaniy konsepsiya muammosi ekvivalentlik va adekvatlik kategoriyalari bilan uzviy bog'liqdir. E. Nida dinamik ekvivalentlik nazariyasida tarjimaning asosiy vazifasi ma'no va ta'sir muqobilligini ta'minlashdan iborat ekanligini ta'kidlaydi (Nida E, 1964, 159-164). Biroq milliy-madaniy konseptlar ko'pincha to'liq lingvistik muqobilga ega bo'lmaydi, chunki ular

muayyan etnomadaniy tajribaga tayanadi. Shu bois tarjimada interpretativ rekonstruksiya, izohlash, adaptatsiya kabi strategiyalar qoʻllanadi.

“Konsept” (lot. *conceptus*- “tushuncha”, “idrok etilgan mazmun”) atamasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik hamda semantik tadqiqotlar doirasida markaziy kategoriya sifatida shakllandi. Ilmiy adabiyotlarda konsept inson ongida shakllanadigan, muayyan voqelik haqidagi bilim, tajriba, tasavvur va baholash tizimini mujassamlashtiruvchi murakkab mental birlik sifatida talqin etiladi. Mazkur birlik til vositasida ifodalanadi, biroq u faqat til birligi emas, balki til ortidagi madaniy va psixologik qatlarni ham qamrab oladi. Shu jihatdan konsept tushunchadan farq qiladi: tushuncha mantiqiy-taʼrifiy xarakterga ega boʻlsa, konsept aksiologik (qadriyatlar), obrazli va emotsional komponentlarni ham oʻz ichiga oladi.

Lingvo madaniyatshunoslikda konseptni madaniyat bilan uzviy bogʻliq hodisa sifatida talqin qilish tendensiyasi ustunlik qiladi. Jumladan, Yu. S. Stepanov konseptni “madaniyatning uyasi” sifatida tavsiflab, uni til orqali ifodalanuvchi, ammo til doirasidan kengroq boʻlgan mental-madaniy birlik deb taʼriflaydi. Uning fikricha, har bir konsept uch qatlamdan iborat boʻladi:

1. Asosiy tushunchaviy qatlam (denotativ yadro);
2. Tarixiy-madaniy qatlam (etnomadaniy tajriba, anʼanaviy talqinlar);
3. Shaxsiy-emotsional qatlam (individual assotsiatsiyalar va baholashlar (Stepanov Yu., 1997, 43-47).

Mazkur uch qatlamli model konseptni kompleks fenomen sifatida koʻrib chiqish imkonini beradi va milliy-madaniy konsepsiyalarni tahlil qilishda metodologik asos vazifasini bajaradi.

Milliy-madaniy konsepsiyaning tarkibiy modeli doirasida asosiy tushunchaviy qatlam, yaʼni denotativ yadro, konseptning semantik markazi sifatida namoyon boʻladi. Mazkur qatlam konseptning umumiy, nisbatan universal va barqaror maʼnosini ifodalaydi hamda lugʻaviy taʼriflarda aks etadigan denotativ komponentni oʻz ichiga oladi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept koʻp qatlamli mental tarkib sifatida talqin qilinarkan, uning markaziy qismi - tushunchaviy komponent - voqelik haqidagi umumlashtirilgan bilimni ifodalaydi. Bu qatlam obyektiv reallik bilan bevosita bogʻliq boʻlib, predmet yoki hodisaning asosiy belgilari, vazifasi va kategoriyaviy mansubligini aks ettiradi. Shu maʼnoda denotativ yadro konseptning ontologik asosini belgilaydi.

Semantik yondashuv nuqtayi nazaridan, konsept tarkibini yadro va periferiyaga ajratilishi metodologik jihatdan muhimdir. Yadro - bu minimal semantik komponentlar majmui boʻlib, u birlikning asosiy identifikatsion

xususiyatlarini belgilaydi. Periferiyada esa konnotativ, emotsional va milliy-spetsifik elementlar joylashadi. Bu differensial model tarjima jarayonida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “dasturxon” konseptining denotativ yadrosi “ovqat qo‘yiladigan mato yoki yuzalik” ma’nosini bildiradi. Bu ma’no ingliz tilidagi “tablecloth” birligi bilan qisman mos keladi. Biroq “dasturxon” konseptining aksiologik va ramziy qatlamlari - mehmondo‘stlik, saxovat, birlik, baraka - periferik komponentga kiradi va ular to‘liq semantik ekvivalentga ega emas. Demak, tarjimada avvalo yadroviy ma’no aniqlanadi, so‘ng periferik qatlamni qanday yetkazish masalasi hal etiladi.

Tarjimashunoslikda denotativ yadroni aniqlash quyidagi masalalarni hal etishga yordam beradi:

- polisemantik birlikning asosiy ma’nosini aniqlash;
- formal ekvivalent topish imkoniyatini baholash;
- periferik komponent yo‘qolishining oldini olish uchun kompensatsiya strategiyasini ishlab chiqish.

Agar tarjimada faqat periferik qatlam e’tiborga olinib, yadroviy ma’no noto‘g‘ri talqin qilinsa, matnning semantik asosiga putur yetadi. Aksincha, faqat denotativ yadro saqlanib, aksiologik qatlam inkor etilsa, madaniy-konseptual mazmun yo‘qoladi. Shu bois denotativ yadro konsept tahlilining birinchi va zarur bosqichi hisoblanadi.

Bizningcha, asosiy tushunchaviy qatlam (denotativ yadro) milliy-madaniy konsepsiyaning semantik markazini tashkil etadi. U konseptning lug‘aviy-ta’rifiy asosini belgilaydi hamda boshqa qatlamlarning shakllanishi uchun poydevor vazifasini bajaradi.

Kognitiv semantika doirasida konsept inson tafakkurining asosiy birligi sifatida talqin qilinadi. Bu yo‘nalishda konsept borliqning ongdagi modeli sifatida izohlanadi. Bunda konsept til birliklari orqali ifodalanadi, biroq uning mazmuni til doirasidan kengroq bo‘lib, ekstralingvistik omillar - tarix, din, ijtimoiy institutlar, mentalitet bilan belgilanadi. Shu sababli milliy-madaniy konsepsiyalarni o‘rganish tilshunoslik bilan bir qatorda madaniyatshunoslik, etnografiya va sotsiologiya bilan ham uzviy bog‘liqdir.

Bundan tashqari, milliy-madaniy konsepsiya til tizimining turli sathlarida namoyon bo‘ladi. Leksik darajada u kalit so‘zlar orqali ifodalanadi, frazeologik darajada barqaror birikmalar, maqol va matallar orqali mustahkamlanadi, paremiologik darajada xalq donishmandligi va qadriyatlar tizimini aks ettiradi, matn darajasida esa badiiy, publitsistik yoki diniy diskurs orqali kengaytiriladi. Masalan, o‘zbek tilidagi “mehmon”, “or-nomus”, “ota roziligi” kabi birliklar nominativ ma’nodan tashqari, chuqur madaniy-konseptual qatlamni mujassamlashtiradi.

“Mehmon” konsepti nafaqat tashrif buyurgan shaxsni anglatadi, balki mehmondo‘stlik, saxovat, hurmat va baraka kabi aksiologik komponentlarni ham o‘z ichiga oladi. “Or-nomus” konsepti esa shaxsiy sha‘n, ijtimoiy obro‘, axloqiy mas‘uliyat va kollektiv baholash mezonlari bilan bog‘liq murakkab mental modeldir.

Lingvomadaniyatshunoslik maktabining yetakchi vakillaridan biri Veronika Teliya frazeologik birliklarni milliy mentalitetning eng barqaror va madaniy jihatdan markaziy qatlamini aks ettiruvchi birliklar sifatida talqin qiladi. Olimaning ta‘kidlashicha, frazeologizmlar “madaniy xotira konteyneri” bo‘lib, ular orqali xalqning tarixiy tajribasi, mifologik qarashlari, diniy e‘tiqodi va axloqiy qadriyatlari jamlangan holda saqlanadi. Shuningdek, u frazeologik tizimni lingvomadaniy semiozning markaziy mexanizmi sifatida baholab, undagi obrazlilik va metaforik model milliy tafakkur tipini belgilashini asoslaydi.

Lingvomadaniy yondashuvning metodologik negizi til va madaniyatning o‘zaro dialektik birligiga asoslanadi. Til madaniyatni ifodalaydi, madaniyat esa til tizimining semantik strukturasi belgilaydi. Shu bois milliy-madaniy konsepsiya tilning semantik tizimida aksiologik komponent orqali namoyon bo‘ladi.

Lingvomadaniy tahlil odatda uch bosqich asosida amalga oshiriladi:

Birinchi bosqich - nominativ birlikni aniqlash. Bu bosqichda konseptni ifodalovchi asosiy leksik yoki frazeologik birlik aniqlanadi. U til tizimida markaziy semantik indikator vazifasini bajaradi.

Ikkinchi bosqich - tarixiy-etnografik asosni ochish. Mazkur bosqichda birlikning kelib chiqishi, etimologiyasi, urf-odat va marosimlar bilan bog‘liqligi, folklor va paremiologik manbaalarda aks etishi o‘rganiladi.

Uchinchi bosqich - baholovchi va stereotipik qatlamni tahlil qilish. Bu bosqichda birlikning aksiologik yuki, ijobiy yoki salbiy konnotatsiyasi, ijtimoiy stereotiplarga bog‘liqligi aniqlanadi. Masalan, “dasturxon yozmoq” iborasi saxovat va hurmat belgisi sifatida ijobiy baholanadi, “dasturxon tor” esa salbiy aksiologik komponentga ega. Demak, konsept semantik jihatdan faqat predmetni emas, balki baholash tizimini ham ifodalaydi.

Lingvomadaniy yondashuv tarjima nazariyasida muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. U tarjima jarayonida faqat formal-semantik muqobillikni emas, balki konseptual va aksiologik adekvatlikni ta‘minlash zaruratini ilgari suradi. Bunday holatlarda quyidagi strategiyalar qo‘llaniladi:

- izohli tarjima (deskriptiv strategiya) - konseptning madaniy mazmunini kengaytirib berish;

- kompensatsiya - boshqa nutqiy vositalar orqali yo‘qolgan aksiologik komponentni qoplash;

-pragmatik moslashtirish - matnni qabul qiluvchi madaniyatga muvofiq semantik kengaytirish yoki kontekstual izoh berish.

Lingvomadaniy yondashuvning afzalligi shundaki, u til birliklarini yashirin holda emas, balki asliyat tili muhitida o'quvchi ongi bilan uzviy bog'liq holda talqin etadi. Bu esa milliy-madaniy konsepsiyalarni tadqiq qilishda kompleks metodologik asos yaratadi. Bundan kelib chiqib ayta olamizki, lingvomadaniy yondashuv tarjimashunoslik, diskurs tahlili va madaniyatlararo kommunikatsiya sohalarida konseptual tafovutlarni aniqlash va adekvat interpretatsiya qilish imkonini beradi.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, lingvomadaniy yondashuv konseptni nafaqat nominativ birlik, balki madaniy xotira va ijtimoiy qadriyatlar tizimining lingvistik modeli sifatida o'rganishga imkon yaratadi. Tarjima jarayonida esa u formal ekvivalentlikdan ko'ra, konseptual adekvatlikni ustuvor mezon sifatida ilgari suradi.

Tarjimashunoslik nazariyasida muqobillik muammosi ko'plab olimlar tomonidan turli mezonlar asosida izohlangan. Bu borada rus tarjimashunoslik maktabining vakili Lev Latishev muqobillikni kommunikativ-pragmatik mezon asosida baholash zarurligini asoslaydi. Olimning ta'kidlashicha, tarjimada asosiy mezon matnning kommunikativ ta'sirini saqlashdan iborat bo'lib, formal-semantik moslik har doim ham yetarli emas. U muqobillikni ko'p darajali hodisa sifatida talqin qilib, uning semantik, funksional va pragmatik qatlamlarini ajratadi (Latishev L., 2005, 27-34). Demak, milliy-madaniy konsepsiyalar tarjimasida faqat lug'aviy moslikni emas, balki kommunikativ maqsad va aksiologik yukni ham saqlash zarur.

Milliy-madaniy konsepsiyalar tarjimada asosan quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi:

1. Muqobilsiz leksika. Bunda asliyat tilidagi birlik tarjima tilda to'liq semantik muqobilga ega bo'lmaydi.

2. Realialar. Muayyan millatning tarixiy-madaniy voqeligi bilan bog'liq predmet yoki hodisalar nomlari. Ular ko'pincha transliteratsiya, izohli tarjima yoki funksional ekvivalent orqali ifodalanadi.

3. Aksiologik komponentlar. Bular birlikning baholovchi va emotsional yuki bo'lib, tarjimada ko'pincha yo'qolib ketish xavfi mavjud.

Shu asosda milliy-madaniy konsepsiyalarni tarjima qilishda quyidagi metodologik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi:

Birinchidan, konseptual yadro va periferiyani aniqlash. Tarjimon avvalo birlikning denotativ yadrosini aniqlashi, so'ng uning konnotativ va aksiologik qatlamini tahlil qilishi zarur. Masalan, "dasturxon" so'zining yadrosi "ovqat qo'yiladigan mato" bo'lsa, periferik qatlamda mehmondo'stlik, saxovat va birlik timsoli mavjud. Tarjimada yadroni saqlash osonroq, biroq periferik qatlamni yetkazish qo'shimcha strategiyani talab qiladi.

Ikkinchidan, baholovchi komponentni saqlash. Aksiologik yuk tarjimada kommunikativ ta'sirni belgilaydi. Masalan, "oq fotiha" iborasi ijobiy baholovchi ma'noga ega. Agar u oddiy "white blessing" tarzida tarjima qilinsa, uning madaniy konnotatsiyasi yo'qoladi. Demak, baholovchi komponent pragmatik ekvivalentlik orqali tiklanishi lozim.

Uchinchidan, izohli tarjima yoki kompensatsiya usulidan foydalanish. Izohli tarjima konseptning madaniy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Kompensatsiya esa yo'qolgan semantik yoki stilistik elementni matnning boshqa qismida qoplashni nazarda tutadi. Bu usullar ayniqsa badiiy va publitsistik matnlarda samarali qo'llaniladi.

To'rtinchidan, madaniy kontekstni rekonstruksiya qilish. Tarjimon asliyat madaniyatidagi konseptning tarixiy va ijtimoiy asosini anglamasdan turib, adekvat tarjima yarata olmaydi. Kontekstni rekonstruksiya qilish intertekstual va intersemiotik bog'liqlikni hisobga olishni talab qiladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Tadqiqot natijalari milliy-madaniy konsepsiya til tizimida oddiy semantik birlik emas, balki milliy ong, qadriyatlar tizimi va tarixiy tajribani mujassamlashtiruvchi ko'p qatlamli mental-madaniy model ekanligini ko'rsatdi.

1. Milliy-madaniy konsepsiyaning tuzilishi uch qatlamli model bilan izohlanishi asoslandi: aktual semantik qatlam (til birliklarida bevosita namoyon bo'ladigan ma'no), tarixiy-madaniy qatlam (urf-odat, marosim, xotira bilan bog'liq komponent), individual interpretativ qatlam.

2. "Yadro-periferiya" semantik modeli konseptni tahlil qilishning majburiy bosqichi sifatida aniqlashtirildi. Denotativ yadro konseptning ontologik asosini belgilab, minimal identifikatsion ma'noni ifodalaydi. Periferik qatlam esa milliy-spetsifik, konnotativ, emotsional va aksiologik komponentlar majmuini tashkil etadi. Natijada konseptning "universal" va "milliy" elementlarini farqlashning amaliy mexanizmi taklif etildi.

3. Milliy-madaniy konsepsiyalar tilning turli sathlarida barqaror ifodalanishi qayd etildi: leksik darajada kalit so'zlar orqali, frazeologik darajada barqaror birikmalar orqali, paremiologik darajada maqol va matallar orqali, diskurs darajasida esa badiiy va publitsistik matnlar orqali. Bu ko'p darajalilik konseptning "til tizimidagi yashash shakllari"ni ko'rsatadi.

4. Tarjimashunoslik bo'yicha natija shundan iborat bo'ldiki, milliy-madaniy konseptlar ko'pincha to'liq lingvistik muqobilga ega bo'lmaydi va bu holat uch asosiy manbada namoyon bo'ladi: muqobilsiz leksika, realiyalar, aksiologik komponentlar. Shundan kelib chiqib, tarjimada konseptual adekvatlikni ta'minlash

uchun “yadro saqlash + periferiya kompensatsiyasi” tamoyili metodik yechim sifatida belgilandi.

Munozara. Olingan natijalar milliy-madaniy konsepsiyani o‘rganishda bir yoqlama yondashuv yetarli emasligini ko‘rsatadi. Konseptning denotativ yadrosini aniqlash tarjimada formal ekvivalentni topish uchun zarur, biroq bu yetarli shart emas. Agar tarjimada faqat yadro saqlanib, periferik qatlam inkor etilsa, konseptning madaniy axboroti va kommunikativ ta’siri yo‘qoladi. Aksincha, periferiya talqini kuchaytirilib, yadro noto‘g‘ri aniqlansa, matnning semantik tayanchi buziladi. Demak, adekvat tarjima va adekvat ilmiy talqin uchun “yadro-periferiya muvozanati” tamoyili hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Munozara nuqtayi nazaridan, E. Nida konsepsiyasidagi “ma’no va ta’sir muqobilligi” milliy-madaniy konseptlar tarjimasida bevosita sinovdan o‘tadi: ta’sir muqobilligini tiklash ko‘pincha formal moslikdan voz kechishni talab etadi. L. K. Latishevning kommunikativ-pragmatik mezonni esa bunday holatlarda yanada aniqlashtiruvchi mezon bo‘lib xizmat qiladi, chunki konsept tarjimasida qabul qiluvchida hosil bo‘ladigan madaniy talqin, baholash va stereotipik tasavvurlar ham hisobga olinishi zarur.

XULOSA

Shu asosda maqola doirasida quyidagi amaliy-munozarali xulosalar asoslanadi. Birinchidan, milliy-madaniy konseptlar bilan ishlashda interpretativ rekonstruksiya zarur jarayon bo‘lib, u tarjimonning faqat til bilimi emas, balki madaniy kompetensiyasini ham talab qiladi. Ikkinchidan, izohli tarjima va pragmatik moslashtirish strategiyalari konseptual adekvatlikni ta’minlashda samarali, biroq ular matnning stilistik tuzilishini buzmasligi uchun kompensatsiya mexanizmlari bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Uchinchidan, frazeologik birliklar ko‘pincha milliy ma’noning markaziy nuqtalarini saqlaydi va ular bilan ishlash maxsus semantik va pragmatik ehtiyotkorlikni talab qiladi.

Natijada, mazkur maqola milliy-madaniy konsepsiyani ko‘p qatlamli mental-madaniy model sifatida tahlil qilish, uni semantik differensiallashtirish, lingvomadaniy bosqichli tahlil va tarjimada kommunikativ-pragmatik adekvatlik tamoyillari bilan birlashtiruvchi izchil metodologik yechimni asoslaydi. Bu yondashuv konseptual tafovutlarni aniqlash, madaniy mazmuni yo‘qotmasdan talqin qilish hamda tarjimada ta’sir muqobilligini tiklash uchun nazariy va amaliy platforma vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Федоров А. В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы): учеб. пособие для ин-тов и фак. иностр. яз. – 4-е изд., перераб. и доп. – Москва: Высшая школа, 1983. – 303 с.
2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – 242 p.
3. Латышев Л. К. Технология перевода. – Москва: Академия, 2005. – 320 с.
4. Маслова В. А. Лингвокультурология: учеб. пособие. – Москва: Академия, 2001. – 208 с.
5. Nida E. A. *Toward a Science of Translating: With Special Reference to Principles and Procedures Involved in Bible Translating*. – Leiden: Brill, 1964. – 331 p.
6. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры. Опыт исследования. – Москва: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.
7. Саломов Ф. Бадий таржиманинг лексик-фразеологик масалалари. – Тошкент: Фан, 1960. – 144 б.
8. Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 320 б.
9. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: Языки русской культуры, 1996. – 288 с.
10. Tursunov A. H., Tursunov M. A. Islomiy atamalar bilan ifodalangan o‘lchov birliklarining inglizcha tarjimalarda aks etishi. // *Komparativistika (Comparativa studies)*. - 2024 – Vol. 1, № 4. – В. 230-239.

REFERENCE:

1. Fedorov, A. V. (1983) *Foundations of the General Theory of Translation (Linguistic Problems)*. Moscow: Vysshaya Shkola.
2. Lakoff, G., Johnson, M. (1980) *Metaphors We Live By*. Chicago: University of Chicago Press.
3. Latishev, L. K. (2005) *Translation Technology*. Moscow: Akademiya.
4. Maslova, V. A. (2001) *Linguoculturology*. Moscow: Akademiya.
5. Nida, E. (1964) *Toward a Science of Translating*. Leiden: Brill.
6. Stepanov, Yu. S. (1997) *Constants: A Dictionary of Russian Culture*. Moscow: School “Languages of Russian Culture”.
7. Salomov, G. (1960) *Lexical and Phraseological Issues of Literary Translation*. Tashkent: Fan.
8. Safarov, Sh. (2008) *Pragmalinguistics*. Tashkent.
9. Teliya, V. N. (1996) *Russian Phraseology: Semantic, Pragmatic and Linguoculturological Aspects*. Moscow: Languages of Russian Culture.
10. Tursunov, A. H., Tursunov, M. A. (2024) Reflection of Measurement Units Expressed through Islamic Terms in English Translations. *Komparativistika (Comparative Studies)*. Vol. 1, No. 4.